T.I. BOBAKULOV
U.A. ABDULLAYEV

XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

336.4(07)
B 79

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev

XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

O‘zbekiston Respublikasi oliy va
o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan

47537/6

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2019

UO'K 339.732.4(075.8)
KBK 65.268

Taqrizchilar: *i.f.d.,* **SH.A. Toshmatov;**
i.f.n., dots. **F.U. Dodiyev**

B 12 Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: Darslik / T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 228 b.

Ushbu darslikda zamonaviy xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va jahon valyuta tizimining nazariy va amaliy jihatlari o'z aksini topgan. Shuningdek, darslikda xalqaro hisob-kitob shakllari va ulardan foydalanish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur darslikda O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish va xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mohiyati ochib berilgan.

Darslikka test savollari, glossariy va adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Darslik "Bank ishi" ixtisosligi bo'yicha bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

UO'K 339.732.4(075.8)
KBK 65.268

ISBN 978-9943-13-838-4

© T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev, 2019
© "IQTISOD-MOLIYA", 2019

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini zamonaviy modernizatsiyalash bosqichida mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi ta’minlandi, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi – davlat tashqi qarzining me’yoriy darajadan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Preizdentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan milliy valyutani xorijiy valyutalarga konvertirlash muammosi hal etildi.

Ammo, keyingi yillarda mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida ayrim muammolar, salbiy trendlar yuzaga keldi. Xususan, tashqi savdo aylanmasi saldosining kamayishi kuzatilmoqda. 2010-yilda tashqi savdo aylanmasi 3487,6 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 880,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi[1]. Bundan tashqari, xalqaro kreditlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev e’tirof etganlaridek, “eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda. Masalan, mamlakatimizda 25 yil davomida olingan kreditlarning aksariyati yetarlicha iqtisodiy samara bermaganini turli ekspert va mutaxassislar ochiq tan olmoqda”[2].

Shuningdek, dunyo miqiyosida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida jiddiy, olamshumul o‘zgarishlar yuz bermoqda-ki, mazkur holat xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bag‘ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yozish

[1] Eksport va import. www.stat.uz.

[2] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent:O‘zbekiston, 2018. – 47-bet..

zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Masalan, 1930-yildan buyon amal qilib kelayotgan Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalarning (UCP 500) o'rniga yangi UCP 600 qoidasi yuzaga keldi. Bundan tashqari, yevroning muomalaga kiritilishi xalqaro valyuta munosabatlari tarkibida yangi tarkibiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Buning ustiga, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi derivativlarning xalqaro miqyosdagi harakatini tartibga solish mexanizmini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mazkur darslikda xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va uni takomillashtirishning dolzarb muammolari, jumladan, valyuta kurslari va ularning barqarorligini ta'minlash, valyuta tizimlari va ularning elementlari, xalqaro hisob-kitoblar va kreditlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar o'z aksini topadi.

"Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fani bo'yicha yoziladigan ushbu darslikning asosiy vazifasi talabalarning xalqaro valyuta va kredit munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlari xususidagi bilim va ko'nikmalarini boyitish, ularda mavzularga oid bo'lgan mavjud muammolar va ularning yechimlari borasida aniq tasavvurlar hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun darslik oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- valyuta kurslarini aniqlash metodikalarini o'rgatish va unga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir mexanizmini asoslab berish;
- jahon valyuta tizimining evolyutsiyasi va elementlarini o'rganish;
- milliy valyuta tizimining elementlariga baho berish;
- to'lov balansini tuzish metodologiyasi, defitsiti va profitsitini aniqlash tartibini o'rganish;
- xalqaro hisob-kitoblar balansining tarkibiy tuzilishiga baho berish;
- valyuta bozorlarini amal qilish mexanizmi xususida chuqur bilim berish;
- valyuta operatsiyalarining asosiy turlari va ularni amalga oshirish tartibini o'rganish;
- valyuta siyosati va uning shakllariga baho berish;

- xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmini o‘rganish;

- xalqaro kredit va u bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarning mohiyatini ochib berish;

- valyuta inqirozlarining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va unga qarshi kurash siyosati xususida batafsil ma’lumotlar berish;

- xalqaro moliya institutlarining faoliyat yo‘nalishlariga baho berish.

Mazkur darslik “Bank ishi” mutaxassisligi bo‘yicha davlat ta’lim standarti talablariga javob beradi va “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining namunaviy o‘quv dasturidagi mavzularni to‘liq qamrab olgan.

I BOB. VALYUTA KURSI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

1.1. Milliy valyuta tushunchasining mazmuni

Valyuta so'zi italyancha **valuta** so'zidan olingan bo'lib, qiymat degan ma'noni anglatadi.

Har qanday mamlakatning milliy pul birligi uning milliy valyutasi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda valyutalarning quyidagi turlari mavjud:

* **Erkin ishlatiladigan valyuta** (freely usable currency) – to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limida valyutaviy cheklashlar bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalari.

* **Qattiq valyuta** (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo'lgan valyutalari.

* **Yumshoq valyuta** (soft currency) – xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya'ni tashqi konvertirlikka ega bo'lmagan valyutalar.

* **Xalqaro rezerv valyutalar** (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

Yetakchi valyutalarga "xalqaro rezerv valyuta" degan maqomni Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlari beradi.

XVF mezonlari bo'yicha, xalqaro rezerv valyuta deganda davlatlarning xalqaro zaxiralari saqlanadigan va xalqaro kreditlar beriladigan valyutalar tushuniladi.

XVF tomonidan hozirgi kunda AQSH dollari (USD), yevro (EUR), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Yaponiya (JPY) iyeni va Xitoy yuaniga (CNY) xalqaro rezerv valyuta maqomi berilgan[3].

[3] http://www.imf.org.

AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi 1944-yilda, Bretton-vuds jahon valyuta tizimi shakllanayotganda berilgan edi. 1976–1978-yillarda Yamaykada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada to'rtinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi va unda yana ikkita valyutaga – Yaponiya iyeni va GFR markasiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi. 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevroning muomalaga kiritilishi doychemarkani muomaladan chiqib ketishiga sabab bo'ldi va uning maqomi yevroga berildi.

Xalqaro rezerv valyutalar nominal almashuv kursining barqaror emasligi, ularni sezilarli diapazonlarda tebranayotganligi jahon valyuta tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi. Ayniqsa, AQSH dollari va yevroning nominal almashuv kurslarini tez-tez tebranib turishi kuzatilmoqda. AQSH davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defitsitning mavjudligi, davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jahon valyuta tizimining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Holbuki, AQSH dollari hamon dunyoning asosiy rezerv valyutasi bo'lib turibdi. 2018-yilning 1-yanvar holatiga, SDRning "valyuta savatida" AQSH dollarining salmog'i 41,7 foizni tashkil etadi[4].

So'nggi yillarda AQSH dollari kursining sezilarli darajadagi diapazonlarda tebranishi kuzatilmoqda. Bu esa, boshqa mamlakatlarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Buning sababi shundaki, boshqa davlatlar o'zlarining milliy valyutalarining nominal almashuv kursini AQSH dollariga nisbatan belgilaydilar. Shu sababli, AQSH dollari kursining tebranishi milliy valyutalarning almashuv kurslarini tebranishiga olib keladi.

[4] http://www.imf.org.

AQSH dollari nominal almashuv kursining tebranishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri bo'lib, mamlakat savdo balansining katta miqdordagi defitsitga ega ekanligi hisoblanadi. 2018-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, AQSH savdo balansining defitsiti 466,3 mlrd. dollarga yetdi[5]. Bu esa, juda katta miqdordagi defitsit hisoblanadi.



1.1-rasm. **AQSH dollarining 1 yevroga nisbatan nominal almashuv kursi**[6]

1.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014–2016-yillarda AQSH dollarining nominal almashuv kursi yevroga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, AQSH FZTning iqtisodiyotni retsessiya holatidan chiqarishga yo'naltirilgan ekspansionistik pul-kredit siyosatini olib borayotganligi bilan izohlanadi. Ammo, 2017-yilda dollarning yevroga nisbatan nominal almashuv kursi ko'tarilgan. Bu esa, AQSH iqtisodiyotini retsessiya holatidan chiqqanligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda AQSHning Xitoy bilan amalga oshiriladigan savdo munosabatlaridagi defitsit miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

AQSH Davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzining xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy darajadan yuqori ekanligi dollarning

[5] http://lenta.ru/news/2012.
[6] www.x-rates.com.

nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy omillar hisoblanadi. 2017-yilning yakuniga ko'ra, AQSHda davlatning tashqi qarzi YaIM miqdoridan oshdi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy andozaga ko'ra, davlatning tashqi qarzi YaIMga nisbatan 30,0 foizdan oshib ketmasligi kerak. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlatning jami qarziga, ya'ni ichki va tashqi qarziga nisbatan me'yoriy chegara o'rnatilgan bo'lib, u YaIMga nisbatan 60 foizni tashkil etadi[7].

Xalqaro rezerv valyutalar kurslarining nobarqarorligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, milliy valyutamiz – so'mning nominal almashuv kursi asosiy rezerv valyuta bo'lgan AQSH dollariga nisbatan aniqlanadi[8]. Demak, AQSH dollari kursining barqaror emasligi bevosita so'mning nominal almashuv kursining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, xalqaro rezerv valyutalarning almashuv kurslarini nobarqaror emasligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mning nominal almashuv kursi barqarorligini ta'minlash maqsadida uning valyuta kursini AQSH dollari, yevro va Yaponiya ienidan tashkil topadigan "valyuta savati"ga nisbatan aniqlashni joriy qilish taklifi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida so'mning nominal almashuv kursining tebranish dlapazoni sezilarli darajada qisqaradi.

Xalqaro amaliyotda milliy valyutalarning almashuv kursini "valyuta savati"ga bog'lash ularning almashuv kursi tebranishini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergan. Masalan, Rossiyada rublning kursini "bivalyuta savati"ga nisbatan aniqlashning joriy qilinishi uning barqarorligini va yevroning konversion operatsiyalar hajmidagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. 2011-yil yakuni bo'yicha

[7] Экономика Европейского Союза. Под ред. Р.К. Щенина. – М.: КноРус, 2012. – 560 с.

[8] So'mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida AQSh dollariga nisbatan talab va taklif asosida aniqlanadi. Respublikamizda milliy valyutani xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilish buyurtmali savdo tizimiga asoslanganligi sababli, so'mning AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursi so'mda va AQSh dollarida berilgan buyurtmalar miqdorini o'zaro taqqoslash orqali aniqlanadi.

yevroning konversion operatsiyalardagi ulushi 30,3 foizga yetdi. Bu esa, yuqori ko'rsatkich hisoblanadi[9].

1.2. "Valyuta kursi" nazariyalari

Valyuta kursi (exchange rate, foreign exchange rate) – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

Valyuta kursiga oid ilk nazariyalardan biri valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi hisoblanadi va ushbu nazariya angliyalik iqtisodchilar D. Yum va D. Rikardolarning nazariy qarashlariga asoslanadi. D.Rikardoning fikriga ko'ra, savdo balansining defitsiti funt sterling qiymatining pasayishiga olib keldi, valyutalarning xarid qobiliyati ularning muomaladagi miqdorining nisbati bilan belgilanadi[10].

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasining asosiy qoidasi shundan iboratki, valyuta kursi ikki mamlakat valyutasining nisbiy qiymati bilan belgilanadi, o'z navbatida, valyutalarning o'zaro nisbiy qiymati esa, baholar darajasiga bog'liqdir.

Shunisi xarakterliki, mazkur nazariyaga ko'ra, tovarlar va xizmatlarning bahosi muomaladagi pulning miqdori bilan belgilanadi.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasining asoschilari to'lov balansining muvozanatlashgan holatini ta'minlash imkonini beradigan mo'tadil kursni aniqlash g'oyasini ilgari suradilar. Shu sababli, ular, to'lov balansini avtomatik tarzda o'z-o'zidan tartibga solinishiga ishonadilar.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi ilmiy jihatdan birinchi marta shved iqtisodchisi G. Kassel tomonidan 1918-yilda asoslab berildi. Uning fikriga ko'ra, mo'tadil savdo sharoitida shunday valyuta kursi shakllanadiki, bu kurs tegishli valyutalarning xarid qobiliyatini o'zida aks ettiradi[11].

---

[9] Годовой отчет Центрального банка Российской Федерации. – Москва, 2012. – С. 43.

[10] Рикардо Д. Сочинение. Том 2. Пер. с англ. – М.: Политическая литература, 1955. – С. 55.

[11] Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1968. – С. 385.

G. Kasselning fikridan aniq ko'rinib turibdiki, valyuta kursining shakllanishi bevosita valyutalarning xarid qobiliyati bilan bog'liq va bunda asosiy e'tibor miqdoriylikka qaratiladi.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasida valyuta kursining shakllanishiga ta'sir qiluvchi obyektiv omillar va ularga Markaziy bank tomonidan ta'sir etish holatlari e'tiborga olinmagan. Holbuki, hozirgi davrda valyuta kursining shakllanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar ichida siyosiy omillar, spekulyativ kapitallarning harakati kabi obyektiv omillar muhim rol o'ynaydi.

Tartibga solinadigan valyutalar nazariyasining asoschisi J.M. Keyns hisoblanadi[12]. Ushbu nazariyaning yuzaga kelishiga 1929-1933 yillarda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi sabab bo'lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy inqirozi natijasida erkin raqobat va davlatning iqtisodiyotga aralashuviga chek qo'yish g'oyalarini ilgari surgan neoklassik maktablarning valyuta kursi xususidagi nazariy qarashlari o'zlarining nobarqarorligini ko'rsatdi. XX asrning 50–60-yillarida keynschilik rivojlangan davlatlarda asosiy iqtisodiy nazariyaga aylandi.

Suzib yuruvchi valyuta kurslari nazariyasi valyuta kursi xususidagi nazariyalar orasida o'ziga xos o'rin egallaydigan nazariya hisoblanadi. Ushbu nazariyaning asoschilari neoklassik yo'nalishga mansub bo'lgan iqtisodchilar hisoblanadi. Ular jumlasiga M.Fridmen, F.Maxlup, A.Lindbek, G.Jonson, L.Erxard, G. Girsh, E.Dyurrlarni kiritish mumkin[13].

Suzib yuruvchi valyuta kurslari nazariyasi namoyandalari suzib yuruvchi kurslar rejimini qattiq turib himoya qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, suzib yuruvchi kurslarning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

– to'lov balansini avtomatik tarzda muvozanatlashtirish imkonini beradi;

– milliy iqtisodiy siyosat usullari tashqi tazyiqsiz tanlanadi;

– valyutaviy spekulyativ amaliyotlarni jilovlash imkonini beradi;

---

[12] Keynes J.M. The General theory of Employment. Interest and Money - Economica, 1936. – 230 p.

[13] Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Allen & Unwin, 1966.- P. 7-50; Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working.-American Enterprise Institute, 1973. –№8. - P. 5; Johnson G. Formulation of Exchange Rate Policies in Adjustment Programs, IMF Occasional Paper - № 36. – Washigton: IMF, 1985. – P. 17 – 19.

– xalqaro savdoni rag'batlantiradi;

– valyuta kursini valyuta bozorida erkin shakllantirish imkonini beradi.

M. Fridmenning fikriga ko'ra, valyuta kursi talab va taklif asosida erkin shakllanishi va davlat uni tartibga solmasligi lozim[14].

Ayni vaqtda, suzib yuruvchi valyuta kurslarining yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlari har doim ham amaliy ahamiyat kasb etmasligi, milliy valyutaning erkin suzish rejimida ham valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning saqlanib qolishi ayrim iqtisodchilar tomonidan e'tirof etildi. Masalan, J. Vaynerning fikriga ko'ra, erkin bozor baholari dunyosida ham xorijiy valyutalar bozorini davlatning bevosita yoki bilvosita aralashuvisiz tasavvur qilish mumkin emas[15].

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy valyuta almashuv kursining keskin tebranishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning kursiga ta'sir etish, shu jumladan, valyuta interventsiyasini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi o'z isbotini topdi. Spekulyativ kapitallarning xalqaro miqyosdagi oqimining kattaligi Markaziy banklarni shunga majbur qilmoqda.

Valyuta kursi xususidagi nazariyalardan yana biri belgilangan paritetlar va kurslar nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, valyuta kursining o'zgarishi to'lov balansini tartibga solishning samarasiz usuli hisoblanadi. Chunki, xalqaro bozorlarda baholarning valyuta kurslarining o'zgarishiga bog'liq ravishda tebranishiga tashqi savdo yetarli darajada reaksiya bermaydi. Importga bo'lgan talabning oshishi xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi. Bunda eksport va import muvozanatlashgan sharoitdagi almashuv kursi qisqa muddatli davriy oraliqqa mos keladi. Bu davrda ortiqcha talab miqdoridagi xorijiy valyuta bozorda mavjud bo'lmaydi. Shu sababli, valyutaning bahosi oshadi va vaqtinchalik davriy oraliq xorijiy valyutalar taklifi va milliy valyutaning almashuv kursi o'rtasidagi ta'sir jarayonida yuzaga kelmaydi.

---

[14] Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working.-American Enterprise Institute, 1973. –№8. - P.5.

[15] Viner J. Problems of Monetary Control. – Princeton, 1964. –P. 245.

Valyuta kursi xususidagi zamonaviy nazariyalardan biri sifatida F.Maxlupning "Valyuta kursi nazariyasi" deb nomlangan ilmiy ishini keltirish mumkin[16].

F. Maxlup valyuta kursiga xorijiy valyutalar taklifining ta'sirini faqatgina tashqi savdo operatsiyalari misolida ko'rib chiqqan. Uning tahlilida valyuta kursiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar hisobga olinmagan.

Taniqli iqtisodchi olim F. Maxlupning fikriga ko'ra, eksport va importning hajmi o'rtasidagi muvozanat ta'minlangan sharoitda xorijiy valyutalar taklifming o'zgarishi milliy valyutaning almashuv kursiga ma'lum davriy oraliqdan so'ng ta'sir qiladi. Agar bunday sharoitda importga bo'lgan talab keskin oshsa, u holda, xorijiy valyutalar taklifi bilan milliy valyutaning almashuv kursi o'rtasidagi bog'liqlik borasida vaqtinchalik davriy oraliq yuzaga kelmaydi.

Valyuta kursi nazariyalarining amaliy ahamiyatini baholash ularning yashovchanligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, F.Maxlupning mazkur nazariy qarashini qay darajada amaliy ahamiyatga ega ekanligini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti misolida, eksport va import o'rtasidagi muvozanat sharoitida, valyutalar taklifining milliy valyuta kursiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Respublikamizda 2002–2006-yillar mobaynida tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi yillik o'rtacha 1,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgani holda, so'mning AQSH dollariga nisbatan o'rtacha yillik qadrsizlanish sur'ati 6,5 foizni tashkil etdi[17]. Agar F. Maxlupning nazariyasi har qanday iqtisodiy sharoitda real voqelikni aks ettirganida eksport-import o'rtasidagi muvozanat ta'minlangan sharoitda milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi kuzatilmagan bo'lar edi. Holbuki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida to'lov balansi tushum va to'lovlar summasining sezilarli qismi eksport operatsiyalaridan olingan tushumlar va import operatsiyalari bo'yicha to'lovlar summasiga to'g'ri keladi.

---

[16] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 22-82.

[17] Mualliflarning "O'zbekiston iqtisodiyoti" axborot-tahliliy sharhi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik byulletenlari ma'lumotlariga asoslangan hisob-kitobi.

Bunday sharoitda, eksport hajmining import hajmidan oshishi milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib hisoblanishi lozim.

F.Maxlupning valyutalar almashuv kursi nazariyalarining evolyutsiyasiga qo'shgan muhim hissasi shundaki, u xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifning elastikligini hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'sishiga valyutalar taklifi elastikligining ta'sir mexanizmini asoslab berishga muvaffaq bo'ldi. Uning fikricha, mamlakat eksporti bilan bog'liq bo'lgan xorijiy valyutalar taklifining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil boshqa mamlakatlarda importga nisbatan cheklovlarning joriy etilishi hisoblanadi. F.Maxlupning fikriga ko'ra, bizning eksportga nisbatan xorijiy davlatlarning hukumatlari tomonidan importning barcha moddalari bo'yicha kvotalarning joriy qilinishi xorijiy valyutalar bahosining o'sishi natijasida mamlakat eksporti hajmining o'sishiga, xorijiy valyutaga bo'lgan talabning oshishiga olib kelmaydi. Bizning eksportga bo'lgan xorijiy talabning elastikligi yoki boshqacha qilib aytganda xorijiy valyutalar taklifining elastikligi, u ma'lum darajaga yetgandan so'ng, nolga teng bo'ladi. Ushbu darajadan past holatda valyutalar taklifi mutlaqo noelastik bo'ladi. Lekin xorijiy davlatlarning import bo'yicha kvotasi qo'llanilmaydigan import pozitsiyalari mavjudki, bizning esportyorlar mana shu ochiq kenglikda erkin harakatlanishlari, ya'ni xorijiy valyutalar bahosining o'sayotganligi yoki pasayayotganligiga qarab, tovarlar va xizmatlar bahosini oshirishlari yoki pasaytirishlari mumkin[18].

F.Maxlupning fikriga ko'ra, import bo'yicha xorijiy davlatlar tomonidan o'rnatilgan boj solig'i stavkalari va almashuv kursining mavjud holati sharoitida ma'lum miqdordagi tovarlarni sotish mumkin bo'lgan bo'lsa, u holda, eksport qilinayotgan tovarlar miqdorini oshirish uchun xorijiy valyutalarning milliy valyutaga nisbatan bahosi oshishi lozim. Buning natijasida mazkur tovarlar xorijlik xaridorlar uchun arzonlashadi. Agar norezidentlar tomonidan sotib olinayotgan tovarlarning bahosida maxsus import poshlinalarining salmog'i sezilarli

[18] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 29.

darajada yuqori bo‘lsa va bu tovarlar milliy valyutada to‘lansa, u holda, xorijiy valyuta bahosining o‘sishi import tovarlari bahosining foiz nisbatida juda past darajada pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda bizning eksportga nisbatan xorijiy talab almashuv kursining o‘zgarishiga nisbatan past darajada ta’sirchan bo‘lib qoladi. Tovarlarni tashish va xorijda taqsimlash xarajatlarining eksportga ta’siri tariflarning eksportga ta’siri bilan bir xil bo‘ladi. Ya’ni, ushbu xarajatlar qanchalik katta bo‘lsa, talabning almashuv kursining o‘zgarishiga ta’sirchanligi shunchalik past bo‘ladi.

F.Maxlup xorijiy davlatlarda ishlab chiqariladigan va ularning bozorlarida bizning eksport bilan raqobatlasha oladigan tovarlarning elastikligi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy valyutalar taklifining elastikligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi, degan xulosaga keldi va uni quyidagicha izohlaydi: “mamlakatdan eksport qilinayotgan ayrim tovarlar xorijiy davlatlarda ham ishlab chiqarilishi mumkin. Xorijiy xaridor uchun eksportimiz bahosining pasayishi xorijiy valyutaning dollardagi bahosining o‘zgarishi bilan birgalikda yuz beradi. Shuning uchun mamlakat eksport hajmining o‘sishi qisman bizning eksport bilan raqobatlashadigan xorijda ishlab chiqarilayotgan tovarlar hajmining qisqarishiga bog‘liq. Agar xorijda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning taklifi juda elastik bo‘lsa, ya’ni ularni ishlab chiqarish hajmining qisqarishi bizning eksportyorlar taklifining kamayishidan kuchli bo‘lsa, u holda, bizning eksportyorlar xorijiy valyutadagi baholarni keskin pasaytirishlari lozim”[19].

F.Maxlupning fikriga ko‘ra, mamlakat eksportining ayrim moddalariga nisbatan xorijiy talabning elastikligi 1 dan past bo‘lsa, u holda, xorijiy valyutalar taklifi egri chizig‘i ijobiy bukilishga ega bo‘ladi, ya’ni chapdan o‘ngga tomon yuqoriga qarab harakatlanadi. Bunday sharoitda talab qilinadigan tovarlarning hajmi, ya’ni unga bo‘lgan talab, tovarlar bahosining pasayishi sharoitida, o‘sishi lozim. Ammo foizli nisbatda tovarlar hajmining o‘sish sur’ati baholarning pasayish suratidan past bo‘ladi. To‘lanadigan xorijiy valyutaning

[19] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 30.

MUNDARIJA

Kirish..... 3

I BOB. VALYUTA KURSI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

1.1. Milliy valyuta tushunchasining mazmuni..... 6
1.2. "Valyuta kursi" nazariyalari..... 10
1.3. Valyutalarning erkin konvertirlanishi..... 23
1.4. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar..... 30

II BOB. VALYUTA TIZIMLARI VA ULARNING ELEMENTLARI

2.1. Valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari..... 39
2.2. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari..... 41
2.3. yevropa valyuta tizimi..... 45
2.4. Jahon valyuta tizimi va uning evolyutsiyasi..... 48
2.5. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimi..... 54

III BOB. TO'LOV VA HISOB-KITOB BALANSLARI

3.1. To'lov balansi va uni tuzish metodologiyasi..... 60
3.2. To'lov balansining tarkibi..... 62
3.3. To'lov balansining defitsiti va uni qoplash usullari..... 67
3.4. Xalqaro hisob-kitob balansi va uning tarkibi..... 72

IV BOB. VALYUTA BOZORI VA VALYUTA OPERATSIYALARI

4.1.Valyuta bozori tushunchasi va uning turlari..... 75
4.2.Valyuta operatsiyalari tushunchasi va uni tashkil qilish asoslari..... 81
4.3. Spot operatsiyalari..... 91
4.4. Muddatli valyuta operatsiyalari..... 95
4.5. Svop operatsiyasi..... 104
4.6. Valyuta riski va uni boshqarish usullari..... 107

V-BOB. VALYUTA SIYOSATI

5.1. Valyuta siyosati tushunchasining mazmuni..... 111
5.2. Hukumatning valyuta siyosati..... 114
5.3. Markaziy bankning valyuta siyosati..... 116

VI-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

6.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari..... 126
6.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari..... 130
6.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmi..... 136

VII-BOB. XALQARO KREDIT

7.1. Xalqaro kreditning tamoyillari va funktsiyalari..... 146
7.2. Xalqaro kreditning shakllari..... 148
7.3. Xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosi va uni hal qilish yo'llari..... 150

VIII-BOB. VALYUTA INQIROZLARI

8.1. Valyuta inqirozlari tushunchasi va ularni yuzaga kelish sabablari..... 158
8.2. Valyuta inqirozi davrida valyuta interventsiyasini amalga oshirish..... 159
8.3. 2008 yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va o'ziga xos xususiyatlari..... 163

IX-BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT VA MOLIYA TASHKILOTLARI

9.1. Xalqaro valyuta fondi..... 170
9.2. Jahon banki guruhi..... 174
9.3. yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki..... 177
9.4. Osiyo taraqqiyot banki..... 181
9.5. Islom taraqqiyot banki..... 182
Test savollari..... 185
Glossariy..... 206
Adabiyotlar..... 210
Ilovalar..... 215